

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA
TUZILGAN BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

ARIPOV ISLOMJON KAXRAMONOVICH

**SIRDARYO VILOYATIDA TUPROQNING IKKILAMCHI
SHO‘RLANISHINI GEOEKOLOGIK RISKINI BAHOLASHNING ILMIY
ASOSLARI**

11.00.05 – Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish

**GEOGRAFIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Geografiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
географическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
geographical sciences**

Aripov Islomjon Kaxramonovich

Sirdaryo viloyatida tuproqning ikkilamchi sho‘rlanishini geoekologik riskini
baholashning ilmiy asoslari 3

Арипов Исламжон Кахрамонович

Научные основы оценки геоэкологических рисков вторичного засоления
почв в Сырдаринской области..... 21

Aripov Islomjon Kakhramonovich

Scientific basis for assessing geoecological risks of secondary soil salinization
in the Syrdarya region 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works 45

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA
TUZILGAN BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

ARIPOV ISLOMJON KAXRAMONOVICH

**SIRDARYO VILOYATIDA TUPROQNING IKKILAMCHI
SHO‘RLANISHINI GEOEKOLOGIK RISKINI BAHOLASHNING ILMIY
ASOSLARI**

11.00.05 – Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish

**GEOGRAFIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiyasi komissiyasida B2024.3.PhD/Gr341 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Guliston davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.samdu.uz) hamda "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Radkevich Mariya Viktorovna
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Nigmatov Asqar Nigmatullayevich
geografiya fanlari doktori professor

Rafikova Nodira A'zamovna
geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/03.12.2021.Gr.02.07 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil 26-avgust soat 14⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi (manzil: 140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (95) 410-20-10, faks; (0366) 239-19-36; E-mail: ik-geografiya2021@mail.ru).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat universiteti Axborot resurs markazida tanishish mumkin (№65 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15 uy. Tel.: (66) 233-60-87.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil 14-avgust kuni tarqatildi.
(2025 yil 9-avgustdagi 1-raqamli reestr bayonnomasi).



S.B. Abbasov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, g.f.d., professor

B.A. Meliyev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, g.f.f.d. dotsent

M.R. Usmonov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, g.f.d. (DSc) dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon bo'yicha qishloq xo'jaligida sho'rlanish tufayli foydalanishga yaroqsiz holga kelgan ekin maydonlarini ekologik qayta tiklash yoki tuproq sho'rlanishining oldini olish texnologiyalarini ishlab chiqish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Bu aholi sonining o'sib borayotganligi tufayli ularning oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojining ortib borishi va oziq-ovqat tanqisligi bilan bog'liq holda muammolarni keltirib chiqaradi. BMTning 2030-yilgacha Barqaror rivojlanish bo'yicha dasturining 15-maqсадida «Quruqlik ekosistemalarini muhofaza qilish va tiklash, ulardan oqilona foydalanish, o'rmonlarni rasional boshqarish, cho'llashishga qarshi kurashish, yerlarning degradatsiyasini to'xtatish va biologik xilma-xillikning yo'qolishini oldini olish»¹ vazifalari belgilangan. Shunga ko'ra, sho'rlanish tufayli degradatsiyaga uchragan sug'oriladigan ekin maydonlarining ekologiyasi va meliorativ holatini yaxshilash hamda ishlab chiqarishda foydalanish imkoniyatlarini oshirishni taqazo etadi.

Dunyo miqyosida sho'rlanish tufayli degradatsiyaga uchragan yoki foydalanishdan chiqib ketgan sug'oriladigan yerlarni qayta tiklash, tuproq unumdorligini oshirish va qishloq xo'jaligi ekinlari maydonini kengaytirish asosida ekologik holatini yaxshilash bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bunda sho'rga chidamli hamda tuproq tarkibida mavjud suvda eruvchan tuz ionlarini tanasida to'plash xususiyatiga ega bo'lgan o'simlik resurslari yordamida sizot suvlari sathi va sho'rlanish darajasini pasaytirish hamda tuproq unumdorligini oshirish asosida ekologik qayta tiklash yo'nalishlariga ustuvor ahamiyat berilmoqda.

O'zbekistonda atrof-muhitni muhofaza qilish, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, tabiatga chiqariladigan zararli chiqindilarni ruxsat etilgan me'yor darajasidan oshirmaslik bo'yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda va sezilarli ijobiy natijalarga erishilmoqda. "O'zbekiston – 2030" strategiyasida "Respublikada ekologik vaziyatni tubdan yaxshilash, inson hayotiga ta'sir o'tkazuvchi ekologik muammolarni bartaraf etish"² yuzasidan muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada, jumladan, antropogen bosim yuqori bo'lgan Farg'ona vodiysining transchegaraviy xususiyatga ega shimoliy qismidagi tog'oldi landshaftlari strukturasi aniqlash, xilma-xilligini baholash va geoekologik vaziyatini optimallashtirishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan konsepsiyasida "...qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirishda suvni tejaydigan sug'orish texnologiyalarini joriy etishni yanada kengaytirishni, sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilashni, sizot suvlari sathi darajasini pasaytirish va tuproq sho'rlanishini oldini olish uchun samarali

¹ UN Sustainable Development Goals, 2015. Protect, restore and promote sustainable use of terrestrial ecosystems, sustainably manage forests, combat desertification, and halt and reverse land degradation and halt biodiversity loss. URL: <https://sdgs.un.org/goals/goal15>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-158-sonli Farmoni. URL: <https://lex.uz/docs/-6600413>

texnologiyalarni qo'llashni, sug'orish paytida suvni tejaydigan texnologiyalar bilan qamrab olingan yerlarning umumiy maydonini 2 million gektarga, shu jumladan tomchilatib sug'orish texnologiyalari qo'llaniladigan yerlar maydonini 600 gektarga yetkazish" belgilangan. Shuningdek, ushbu dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-iyul sanasida qabul qilingan "2020–2030-yillarda O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF-6024-son Farmonida va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2014-yil 21-yanvar sanasida qabul qilingan "Ekologik normativlar loyihalarini ishlab chiqish va kelishish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida" gi 14-sonli Farmonida, shuningdek ushbu faoliyat bilan bog'liq boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan vazifalarni bajarishga ham ma'lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi. Ushbu tadqiqot Respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning V. "Qishloq xo'jaligi, biotexnologiyalar, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq amalga oshirilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbekiston Respublikasida A.U.Axmedov, I.A.Begmatov, Y.E.Shermatov, A.S.Pulatov, O'.Toshibekov, O.K.Komilov, A.Rasulov, S.Azimboyev, O.Ramazonov, A.Raxmatullaev va boshqa yetakchi olimlarning ilmiy ishlarida ikkilamchi sho'rlanish jarayonlari, ularning fizik-kimyoviy xossalari va sizot suvlarining minerallashuvi muammolari alohida o'rganilgan va ijobiy natijalar olingan.

Hosildorlikning sizot suvlari sathi darajasiga bog'liqligini J.Kuk, Odili Franklin (AQSh), M.Noshadi (Eron), G.Rabadanov (Dog'iston), O.Imamnazarov. (O'zbekiston) kabi tadqiqotchilar o'rganishgan. Sizot suvlari sathining balandligi ildizlarning kislorod bilan to'yinmasligini keltirib chiqarishi, qishda esa ildizlarning muzlashi va mo'rtlashishiga olib kelishi aniqlangan. Qishloq xo'jaligiga oid o'simliklarining har bir turi uchun eng yaxshi suv sathi mavjud bo'lib, aynan o'sha darajada hosil eng yuqori bo'ladi.

Turli bino va inshootlar uchun tuproq sho'rlanishi va sizot suvlari sathi ko'tarilishining zarari muammosi Avstraliya, AQSh, Rossiya hamda O'zbekistonda (Yunusova O. M., Mirzaxo'jayev T.R., Karimov A.X.) o'rganilgan.

Tuproq sho'rlanishining avtomobil yo'llariga ta'sirini A.Qayumov va A.Xudayqulovlar tomonidan o'rganilgan. Ular o'z tadqiqotlari davomida yo'l qoplamasining tez buzilishi va uning mexanik xususiyatlarining pasayishi faktini aniqlaganlar.

O'zbekiston sharoitida yerlarning sho'rlanishidan kelib chiqadigan ekologik va geoekologik risklarni baholash bo'yicha maxsus tadqiqotlar ilgari o'tkazilmagan. Suv xo'jaligi sohasida riskni baholashning dastlabki yondashuvlar olim Y.M. Pevkoning ishonchlilik nazariyasi usullaridan foydalanish taklifiga asoslanadi. Ehtimoliy ekologik oqibatlarni baholash va meliorativ chora-tadbirlar samaradorligini bashorat qilish masalalarini B.Golovaty, Y.Dobrachev, I.Yurchenko kabi olimlar tahlil qilishgan.

L.Y. Poberejniy fuqarolik binolari, inshootlarini qurishda riskni miqdoriy baholashni amalga oshirgan. Risklarni iqtisodiy zarar sifatida baholash Y. Ryumina, V. Nosov kabi olimlarning tadqiqotida ko'rib chiqilgan. Gidromeliorativ tadbirlarni o'tkazishdagi risk S. Isayeva, S. Fonova tomonidan ko'rib chiqilgan va ular riskning yo'l qo'ysa bo'ladigan chegaralarini belgilashgan (riskning geotizimning barqarorligi hali buzilmaydigan holatidagi miqdoriy qiymatlari). S.Fonova va O.Bazarskiyning asarlarida tuproq ifloslanishidan keladigan zararni ifloslanishning jamlanma ko'rsatkichi bo'yicha hisoblash metodi ishlab chiqilgan.

Biroq sho'rlanish jarayonlari va risklarni alohida baholash bo'yicha ko'plab tadqiqotlar o'tkazilganligiga qaramay, geografik birliklar miqyosida sho'rlanishning salbiy ta'sir ko'rsatishining barcha turlarini hisobga oladigan geoeologik risklarni kompleks baholash metod va yondashuvlar hali mavjud emas. Shuning uchun bu vazifa har tomonlama ko'rib chiqishni talab qiladi va yerlarning ikkilamchi sho'rlanishining geoeologik risklarini har tomonlama baholash metodlarini ishlab chiqish masalasi dolzarb hisoblanadi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Guliston davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq №024 "Mirzacho'l vohasi tabiiy resurslaridan oqilona foydalanish va muhofaza qilish" loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Tuproqlarning ikkilamchi sho'rlanishi natijasida kelib chiqadigan geoeologik risklarni baholash usullarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotlarning vazifalari:

yerlarning sho'rlanishi va meliorativ ishlar bilan bog'liq geoeologik risklarni baholashning mumkin bo'lgan yo'llarini tahlil qilish;

Sirdaryo viloyatida tuproqlarning sho'rlanganlik holati va dinamikasini aniqlash;

qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligining sho'rlanganlik darajasi va sizot suvlarining vegetativ darajasiga bog'liqligini aniqlash;

Sirdaryo viloyatida tuproqning sho'rlanishini geoeologik risklarini tahlil qilish va tasniflash;

Sirdaryo viloyatining sug'oriladigan yerlaridan Sirdaryoga drenaj suvlarini tashlash oqibatida yetkazilgan zarar hamda ikkilamchi sho'rlanishga qarshi kurashda geoeologik risklarni baholash.

Tadqiqotning obyekti Sirdaryo viloyatining har xil darajada sho'rlangan tuproq maydonlari hisoblanadi.

Tadqiqot predmetini tuproqning sho'rlanish jarayonlarida geoeologik risklarning paydo bo'lishining qonuniyatlari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot ishlari jarayonida eksperimentni rejalashtirish, kuzatish, sotsiologik so'rov, tizimli-strukturaviy tahlil, adabiyotlar va fond materiallari bilan ishlash, matematik va kompyuter modellashtirish, optimallashtirish metodlari qo'llanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ikkilamchi shoʻrlanishning barcha turdagi salbiy taʼsirini va sodir boʻlayotgan jarayonlarning oʻzaro bogʻliqligini hisobga olish imkonini beradigan shoʻrlanishning ekologik risklarini tasniflash sxemasi ishlab chiqilgan;

geoekologik riskni baholashning risklarning ham sifat, ham miqdoriy tahlilini amalga oshirish imkonini beradigan birlashtirilgan tavsifiy-statistik metodi takomillashtirilgan;

umumiy ifloslanish koʻrsatkichidan foydalangan holda shoʻrlanishning geoekologik risklarini baholash modelining yangicha talqini yaratilgan;

sizot suvlari sathining paxta va bugʻdoy hosildorligiga taʼsir koʻrsatish qonuniyatlari aniqlandi, sizot suvlari minerallashuvi va sizot suvlari sathining kompleks mezoniga qarab hosildorlikni oʻzgarishining matematik modellari yaratilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

risklarni ekologik-iqtisodiy baholashning tuproq shoʻrlanishi va sizot suvlarining minerallashishi sababli ehtimoliy zararining barcha turlarini moliyaviy qiymat koʻrinishida baholash imkonini beradigan metodika ishlab chiqilgan;

shoʻrlanish risklarini sifat va miqdoriy baholashning hududlar holatini baholash hamda gidromeliorativ ishlarni rejalashtirishda qoʻllash mumkin boʻlgan bosqichma-bosqich algoritmi ishlab chiqilgan;

tejamkor sugʻorishda mavjud metodlarning ehtimoliy risklariga baho berilgan, bu esa, oʻz navbatida, shoʻrlangan yerlarda sugʻorish metodlarining kutilmagan oqibatlarini hisobga olish yoʻriqnomasi ishlab chiqilgan;

shoʻrlangan hududlardagi aholi punktlari va avtomobil yoʻllarining suv bosishidan kelib chiqadigan risklarni pul nuqtayi nazaridan baholash maʼlumotlari olingan;

gʻoʻza bargining qalinligini oʻlchash asosida yerlarning shoʻrlanganlik darajasini tezda baholash metodi taklif qilingan va ushbu oʻzaro aloqadorlikning matematik ifodasi eksponensial bogʻliqlik koʻrinishida olingan;

“sizot suvlarining minerallashuvi – sizot suvlari sathi” omillarining sizot suvlari sathini tartibga solish orqali bugʻdoy va paxtaning eng yuqori hosilini olishga imkon beradigan holatlari asoslab berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertatsiya ishida olib borilgan tadqiqotlarning natijalari klassik va zamonaviy statistik dasturlar yordamida tahlil qilinganligi, yetakchi, nufuzli ilmiy nashrlarda chop etilganligi, respublika va xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama qilinganligi, tadqiqotning amaliy natijalari vakolatli davlat tuzilmalari tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati geoekologik risklarni baholashning atrof-muhitga taʼsirini baholash metodologiyasini rivojlantirishga, shuningdek, iqtisodiy geografiyani rivojlantirishga hissa qoʻshadigan metodlarning ishlab chiqilganligi va takomillashtirilganligi, tuproq shoʻrlanishi riskni baholashni ifloslanishning jamlanma koʻrsatkichiga asoslangan birlashtirilgan tavsiflovchi-statistik metodi taklif etilganligi, tuproqdagi turli xil tuzlarning tarkibiga qarab geoekologik risklarning darajasi va ehtimolini baholash metodikasi tajlif etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotlar natijalarining amaliy ahamiyati ikkilamchi sho'rlanishning geoeologik risklarini ekologik-iqtisodiy baholashga yangi yondashuvning ishlab chiqilganidan iborat. Bu yondashuv qishloq xo'jaligi uchun ham, aholi punktlari uchun ham, suv havzalari uchun ham noto'g'ri tashkil etilgan gidromeliorativ ishlarning risklarini har tomonlama (kompleks) baholanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ikkilamchi tuproq sho'rlanishining geoeologik riskini baholash bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

ikkilamchi sho'rlanishning salbiy ta'sirini va sodir bo'ladigan jarayonlarning o'zaro aloqadorligini hisobga olish imkonini beradigan tasniflash sxemasiga oid faktik materiallar, tahlil va xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi amaliyotida sho'rlanishga qarshi kompleks kurashish rejasini takomillashtirishda foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining 2024-yil 10-dekabrda 03-03/3-12233-son ma'lumotnomasi). Natijada, Sirdaryo viloyatida sho'rlanish bilan bog'liq ekologik risklarga qarshi yanada samarali kurashish imkoniyati oshishiga erishilgan;

geoeologik riskni baholaydigan, sifat hamda miqdoriy tahlil qilish imkonini beradigan, birlashtirilgan, tavsiflovchi statistik metoddan O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi amaliyotida tuproq tahlillarini o'tkazishda samarali natijaga erishish usullarini keng qo'llashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining 2024-yil 10-dekabrda 03-03/3-12233-son ma'lumotnomasi). Natijada, tuproqlarni ham miqdor, ham sifat jihatdan yanada samarali tahlil qilish imkonini bergan;

jamlanma ifloslanish ko'rsatkichidan foydalangan holda geoeologik sho'rlanish riskini baholash modelidan O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi amaliyotida foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining 2024-yil 10-dekabrda 03-03/3-12233-son ma'lumotnomasi). Natijada, geoeologik sho'rlanish riskini baholashning o'zgartirilgan modeli, sho'rlanishdan va yerlarni sho'rini yuvish bo'yicha meliorativ ishlardan kelib chiqadigan ekologik risklarning xarajatini baholashning metodi, algoritmi va hisoblash metodikasi shaklida taqdim etish imkonini bergan;

sizot suvlari sathining g'o'za va bug'doy hosildorligiga ta'sirining aniqlangan qonuniyatlari va "minerallashtirish-sizot suvlari sathi" kompleks mezoniga qarab hosildorlikni o'zgartirishning matematik modellaridan O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi amaliyotida qishloq xo'jaligi ekinlarining hosildorligini zamonaviy usullar orqali hisoblashda foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining 2024-yil 10-dekabrda 03-03/3-12233-son ma'lumotnomasi). Natijada, meliorativ ishlarning iqtisodiy samaradorligini hisoblashda tuzatishlar kiritish imkonini bergan.

Tadqiqotlar natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqotlarning asosiy natijalari 5 ta xalqaro jurnallarda, 2 ta respublika ilmiy jurnallarida hamda 5 ta xalqaro

ilmiy-texnik anjumanlarda, jumladan, 2 ta Scopus ilmiy-texnik bazasida va 3 ta respublika ilmiy-texnik anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 15 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola, jumladan, 2 ta respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rt bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi 118 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida olib borilgan tadqiqotning dolzarblik darajasi va zarurati asoslangan, ilmiy ishning maqsadi va vazifalari, ob'ekt va predmeti tavsiflangan, uning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "Tuproqlarning sho'rlanishi muammosining tahlili" deb nomlangan birinchi bobida tuproqlarning sho'rlanishi tadqiq etishning ilmiy-metodologik asoslari mazmun-mohiyati, tuproqlardagi sho'rlanish, ularning dinamik xususiyatlari, olimlar tomonidan olib borilgan tuproqlardagi sho'rlanishga doir tadqiqotlarining tasnifi yoritilgan. Shuningdek, tuproqlardagi sho'rlanishning yuzaga kelishi va o'zgarishlarning qiyosiy tahlillariga oid tushunchalar tahlil qilingan hamda asoslangan. Tadqiqot mobaynida Sirdaryo viloyatining tuproqlarida sho'rlanishi muammosining xronologiyasi, sho'rlanishda tuproq va o'simliklarda sodir bo'ladigan jarayonlar, sho'rlanishning tuproq mikroflorasiga ta'siri, tuproq sho'rlanishining tuproq organizmlariga ta'siri, tuproq sho'rlanishining o'simliklarga ta'siri, sho'rlangan tuproqdagi muhandislik inshootlarini ishlatish bilan birga keladigan fizik jarayonlar, riskni baholash tuproqlarning sho'rlanishiga qarshi kurash bo'yicha ilmiy asoslangan ma'lumotlar keltirilgan.

01.01.2022 sanasi holatiga ko'ra, O'zbekiston respublikasining ma'muriy chegaralaridagi yerlarning umumiy maydoni 44 892 400 gektarni, shundan 4 331 700 gektar sug'oriladigan yerlarni tashkil etdi. Demak, sug'oriladigan yerlar respublikamizdagi barcha yerlarning atigi 9,7% tashkil etadi.

Sug'oriladigan yerlarning katta qismini Mirzacho'l hududida joylashgan Sirdaryo viloyati yerlari tashkil etadi: 2022 yil ma'lumotlariga ko'ra — 287,4 ming gektar, va bu yerlarning 97% turli darajada sho'rlangan.

Agar tuproqning sho'rlanishini dastlab kuchli yuvish va sug'orishning yuvish rejimi bilan sho'rdan yuvilsa, keyinchalik sug'orishning yuvish rejimi va tuproqlarni yuvishdan voz kechish orqali suv sarfini kamaytirish mumkin va bu bilan sug'orish suvini tejash mumkin degan fikr mavjud.

Tuzning yuqori darajadagi konsentratsiyasi tuproqning fizik-kimyoviy va biologik xossalariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Tuproqdagi tuz konsentratsiyasining oshgani sayin uning strukturaviy yomonlashishi (shishish, qattiq yopishish va yuzasida qattiq qobiqning shakllanishi) sodir bo'ladi, va bu esa gidravlik o'tkazuvchanlik va g'ovaklik darajasining pasayishiga olib keladi. Odatda, tuzning ta'siriga uchragan tuproqlarda taxmin qilinishicha pH qiymatlari yuqori bo'lganligi tufayli ozuqa moddalarining tanqisligi (asosan N, P, K) va mikroelementlarning (masalan, Al, Fe, Zn, Cu, Mn) olish uchun ochiqligi darajasining kamayishi kuzatiladi.

Sho'rlanish o'simliklarning metabolik jarayonlarini to'xtatish bilan ularning o'sishi va rivojlanishiga ta'sir qiladi, va natijada hosildorlikning pasayishiga olib keladi. Muayyan tuzlarning, jumladan Na^+ , Cl^- va HCO_3^- ning yuqori konsentratsiyasi ko'plab o'simlik turlari uchun toksik (zaharli) hisoblanadi. O'simlik og'izchalarining yopilishi og'ir toksik kislorod hosilalarining hosil bo'lishini keltirib chiqarish bilan CO_2 ning foydalanishga mavjudligi darajasini pasaytiradi. Bundan tashqari, o'simliklarda eng zaharli gidroksil radikallarining (OH^-) hosil bo'lishi makromolekulalar bilan o'zaro faoliyatga salbiy ta'sir qiladi va, shu tariqa, hujayraning shikastlanishiga yoki nobud bo'lishiga olib keladi.

Ko'pgina tadqiqotchilar tuproqdagi kationlar va ularning tuzlarining yuqori konsentratsiyasi tashqi osmotik potensialning paydo bo'lishiga olib kelishini aniqlaganlar. Bu o'simliklarning ildiz hujayralariga suvning kelishini pasaytiradi va bu esa o'sishining sekinlashishiga olib keladi. Shuni ta'kidlash lozimki, barcha o'simliklar ham sho'r muhitga bir xil javob bermaydi. Shunga ko'ra, barcha o'simliklarni ikki toifaga bo'lish mumkin: galofitlar (tuzga barqaror, chidamli) va glikofitlar (tuzga sezgir).

Sho'rlangan tuproqlarning avtomobil yo'llariga ta'sirini ham ko'rsatadilar. O'zR Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llari ITIda olib borilgan ilmiy izlanishlarning natijalari bo'yicha tuproqning namligi va sho'rlanishi darajasining oshishi bilan sho'rlanish turidan qat'i nazar, ularning mexanik xususiyatlari pasayishi kuzatiladi. Mexanik xususiyatlarning pasayishi natijasida yo'lning buzilishi kuzatiladi. Shu sababdan Sirdaryo viloyati yo'llarining qoplamasi sifatining pastligi ko'zatiladi.

Tadqiqotchi A. Kayumovning ma'lumotlariga ko'ra, Mg va Na sulfatlarining miqdori hatto atigi 1% bo'lsa ham, ular 2-3 mavsum davomida qoplamaning buzadi. Sho'rlanmagan tuproqlarda shunga o'xshash yo'llar faqat 8 yildan keyingina ta'mirlashni talab qiladi. Shunday qilib, tuproqning yuqori namligi va sho'rlanishi avtomobil yo'llarini tez-tez ta'mirlash zaruriyatiga va tegishli ravishda xarajatlarning o'sishiga olib keladi.

Avtomobil yo'llarining yomon holati atmosfera havosiga ifloslantiruvchi moddalar chiqindilarini tashlash, chiqarish hajmining ko'payishi kabi ekologik risklarga, yo'llar va avtomobillarni ta'mirlash xarajatlarning oshishi kabi iqtisodiy risklarga, yo'l-transport baxtsiz hodisalari ehtimolining oshishi kabi ijtimoiy risklarga olib keladi.

Dissertasiyaning "Tadqiqot metodologiyasi va geoekologik riskni baholash" ikkinchi bobida risklarni baholash metodologiyasi aniqlangan.

O'tkazilgan tahlil natijasida yerlarning birlamchi va ikkilamchi sho'rlanishidan kelib chiqadigan xavfni baholash zarurati aniqlandi. Yerlarning sho'rlanishidan kelib chiqadigan ko'p omilli risk baholanmagan bo'lgani sababli, eng mos baholash metodologiyasini tanlash uchun turli mavjud usullar ko'rib chiqildi (ballar hisobida, injenerlik, ekologik-iqtisodiy, tavsifiy va h.). Hozirgi vaqtda riskning yagona tushunchasi va uni baholash metodikasi mavjud emas, shu sababli geoeologik risklarni baholash uchun yangi usul va baholash metodikasini ishlab chiqish zarur.

Risklarni aniqlashning barcha mavjud ko'p xil usullari yetarlicha murakkab va ishonchli emas. Shuning uchun turli usullarning afzalliklaridan foydalanib, murosali yechim topish kerak. Dastlab, sho'rlanishning geoeologik xavflarini baholash uchun pul birliklarida xavf miqdorini o'lchaydigan kombinatsiyalangan tavsifiy-statistik usulni tanlash mumkin. Baholashning bunday usuli iqtisodiy va ijtimoiy geografiya, tuproqshunoslik, iqtisodiyot, muhandislik inshootlarini loyihalash kabi sohalarida qo'llanilishi mumkin.


Gidromeliorativ tadbirlarni amalga oshirishda risk u yoki bu darajada muqarrar ekanligini hisobga olib, uning maqbul chegaralarini, ya'ni mahalliy salbiy ekologik hodisalar mumkin bo'lsa-da, lekin geotizimning barqarorligi butunlay buzilmagan xavfning son qiymatlarini o'rnatish zarur ko'rinadi. Ushbu risk miqdorlarini baholash uchun odatda tuproqlarning turli zaharli moddalar bilan ifloslanish xavfini baholash uchun qo'llaniladigan ifloslanishning umumiy ko'rsatkichi bo'yicha baholash metodikasidan foydalanish taklif etiladi. Ushbu metodikani qo'llash uchun avvaldan tuz tarkibining ruxsat etilgan darajalarini belgilash zarur.

Dissertasiyaning "Sirdaryo viloyatida gidromeliorativ ishlar risklarini baholash" uchinchi bobida Sirdaryo viloyatida gidromeliorativ ishlarning risklarini to'rtta usulda baholash amalga oshirilgan: 1) ekologik-iqtisodiy optimallashtirish modeli yordamida tadqiq qilinayotgan yerlarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotish dasturini tuzish orqali; 2) IJK-ni baholash yordamida; 3) taklif etilayotgan tavsiflovchi-statistik metod yordamida zararni pul ko'rinishida baholash yordamida; 4) Sirdaryo viloyati bo'yicha tuproqlarning sho'rlanishidan kelib chiqayotgan geoeologik risklarni solishtirma baholash yordamida.

Ekologik-iqtisodiy baholash uchun turli darajada sho'rlangan yerlarda daromad olish imkoniyatlarini, shuningdek sho'rlarni yuvish ishlariga ketadigan zarur xarajatlarini aniqlash kerak bo'ldi. Sirdaryo viloyati tuproqlarining sho'rini yuvish bo'yicha keng ko'lamli loyihani ishlab chiqishning imkoniyati yo'qligi sababli, hisob-kitoblar ma'lum bir shartli xo'jalik uchun o'simlikshunoslik va chorvachilik mahsulotlarining hosildorligi va narxini, tuproqning sho'rlanganligi va sho'rlarini yuvish bo'yicha meliorativ ishlarning narxi tufayli mahsulotni yetarlicha olmaslikdan yo'qotishlarni hisobga olgan holda amalga oshirildi. Past darajada sho'rlangan yerlar uchun hisoblangan integral ko'rsatkichlar: 7 yil davomida sof diskontlangan daromad — \$ 58375, foyda berish (rentabellik) indeksi 1,1, xarajatlarni qoplash muddati 4 yilni tashkil etdi. O'rtacha darajada sho'rlangan yerlar uchun bu ko'rsatkichlar mos ravishda \$ 143678; 1,32; 3 yilni

tashkil etdi. Shunday qilib, past va o'rta darajada sho'rlangan yerlarning sho'rini yuvish va intensiv qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini amalga oshirishning iqtisodiy maqsadga muvofiqligining tasdig'i olindi. Kuchli darajada sho'rlangan yerlarning sho'rini yuvish iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq emasligi tasdiqlandi.

Adabiyotlardagi ma'lumotlar asosida riskni IJK (ifloslanishning jamlama ko'rsatkichi) yordamida baholash uchun tuz miqdorining quyidagi qiymatlari yo'l qo'ysa bo'ladigan maksimal qiymatlar sifatida qabul qilindi. Sirdaryo viloyati tuproqlarining holatini o'rganishdan olingan ma'lumotlar har bir tuman uchun Ki tuzlari kontsentratsiyasining koeffitsientlarini aniqlash va IJK ko'rsatkichini baholash imkonini berdi. Sirdaryo viloyati bo'yicha IJK-ning o'rtacha qiymati 4,76 ni tashkil etdi, bu "kompensatsiya qilinadigan xavf" toifasiga mos keladi.



1-rasm. Sun'iy sug'orish risklari

Hisob-kitob natijalariga ko'ra kompensatsiya qilinadigan inqirozning (riskning) ehtimoli 75% ni tashkil etdi, ya'ni Sirdaryo viloyati tuproq resurslarining umumiy holatini og'ir deb hisoblash mumkin. Vaziyatni

barqarorlashtirish uchun shoshilinch choralar ko'rish talab etiladi. Riskni pul ko'rinishida baholash imkonini beradigan birlashtirilgan tavsifiy-statistik metod taklif etildi. Undan foydalanib, ekologik risklarni tahlil qilish uchun modifikatsiya qilingan bazaviy model tuzildi va atrof muhitga yetkaziladigan zarar pul ko'rinishida aniqlandi. Sirdaryo viloyatida turli gidromeliorativ ishlarni amalga oshirishda geoekologik risklarni aniqlash natijalari 2-rasmda ko'rsatilgan. Aniqlangandan so'ng, aniq va yashirin risklarning sifat va miqdoriy tahlili o'tkazildi.

Hosil yo'qolishining aniq risklarini baholash bug'doy va paxta hosildorligi bo'yicha statistik ma'lumotlarni tahlil qilish asosida amalga oshirildi. 10 yil ichida bug'doy hosilining yo'qotilishi 11 35 003 tonnani, 1 yil ichida o'rtacha 113 50 tonna (2023 y) 115,3 USD/t tashkil etdi. Yiliga o'rtacha pul yo'qotilishlar 13 086 550 USD/t, yillik solishtirilgan yo'qotishlar yiliga 144,1 USD/ga. G'oz uchun 10 yil ichida yo'qotishlar 1 569 812 tonnani, 1 yil ichida 156 981 tonnani (2023 y) 911 USD/tonnani tashkil etdi. Yiliga o'rtacha pul yo'qotilishlar 143 009 691 USD/t, yillik solishtirilgan yo'qotishlar yiliga 1591,1 USD/ga. Tuproqning sho'rlanishi, suvning minerallashuvi, yetarlicha sug'ormaslik va boshqa hisobga olinmagan omillar tufayli bug'doy va paxta ekinlarining boy berilgan hosilini olmaslik natijasida o'rtacha yillik umumiy zarar 156 096 241 USD/t ni tashkil etadi.

Tuproqning sho'rlanishi tufayli yo'llarga yetkaziladigan zarar ta'mirlash ishlarining o'tkazilishi sonining (chastotasining) oshishi asosida baholandi. Yillik zarar 68750 USD /km-yil, yo'llarning jami uzunligi uchun: 61875000 USD/yil


Shuningdek, aholi punktlaridagi binolarni suv bosishi muammosi o'rganildi. Ijtimoiy so'rov metodi bilan suv bosishiga duch kelgan aholi punktlari aholisi o'z turar joylarini yiliga o'rtacha 1,3 marta o'rtacha 3,1 million so'm xarajatlar ketkazib ta'mirlashga majbur bo'lganligi aniqlandi. Aholiga yer osti suvlarining sathi ko'tarilishi natijasida yetkaziladigan jami zarar yiliga 6,62 mln USD -ni tashkil etadi

Hosilni yo'qotishning yashirin riskini baholash Sirdaryo viloyatining sug'oriladigan yerlaridan Aydar-Arnasoy ko'llari va Sirdaryoga drenaj suvlarini tashlash natijasida yetkazilgan zararni hisobga oldi. Suvlarni Aydar-Arnasoy ko'llariga oqizishdan keladigan zarar 940,8 mln. USD/yil, Sirdaryo oqimiga suvlarning oqizilishidan keladigan keladigan zarar — 268,8 million. USD/yil, ya'ni, suv havzalariga yetkaziladigan umumiy zarar 1209,6 mln. USD/yil ni tashkil etdi.


Sho'rtoblarning paydo bo'lishidan kelib chiqadigan yashirin zarar yerlarning degradatsiyasi sababli ularning narxining pasayishiga qarab hisoblab chiqilgan (degradatsiyaga uchragan yerlarning maydoni (sho'rtoblar) 9000 ga, yerlarning kadastr qiymati 1732,8 USD/ga-yil). Hisoblangan zarar yiliga 106047360 USD-ni tashkil etdi. Degradatsiyaga uchragan yerlarni tiklash uchun zarur xarajatlarni hisobga olgan holda 1104 mln. USD/yil. Sho'rtoblarning hosil bo'lishidan keladigan umumiy zararini yiliga 1 071 511 360 USD deb hisoblash mumkin. Umumiy yillik (jami) R risk salbiy sho'rlanishning barcha oqibatlarini sifatida baholandi: sug'oriladigan yerlarning mahsuldorligining yo'qotilishi natijasida

yetkazilgan zarar, binolar va infratuzilmaning shikastlanishidan yillik moddiy-mulkiy zarar, drenaj suvlarining oqizib yuborilishi natijasida ekologik zarar va ikkilamchi sho'rlanish natijasida tuproqning degradatsiyasi. Umumiy jami risk yiliga 2,506 milliard USD-ni tashkil etadi. Sirdaryo viloyatining o'rta va yuqori darajada sho'rlangan yerlarining butun maydonini tiklash uchun yiliga 632 654 400 USD kerak bo'ladi va bunday investitsiyalar 6-7 yil ichida amalga oshirilishi zarur.


Sirdaryo viloyat melioratsiya xizmatining (2010–2022) yillardagi kuzatuv ma'lumotlarini to'plab, tahlil qilinganda aniqlandiki, viloyat sug'oriladigan maydonlarining deyarli 97 foizi turli darajada sho'rlangan bo'lib, jami maydon 2010-yilda 292,8 ming ga. ni tashkil qilgan bo'lsa, 2022-yilda 287,4 ming ga. ni tashkil qilgan.



**2-rasm. Sirdaryo viloyati sug'oriladigan tuproqlarining sho'rlanganlik
(01.10.2010) holati xaritasi**



3-rasm. Sirdaryo viloyati sug'oriladigan tuproqlarining sho'rlanganlik (01.10.2022) holati xaritasi



4-rasm. Sirdaryo viloyatida sug'oriladigan maydonlarning sho'rlanish darajasi bo'yicha 2010–2022-yillardagi ko'rsatkichlar va Sirdaryo viloyati bo'yicha risk ko'rsatkichlari (USD)

Sirdaryo viloyati sug'oriladigan yerlarining meliorativ holatini kompleks tahlil qilish natijalari 2010-2022 yillar davridagi ikkilamchi sho'rlanish jarayonlarining murakkab va qarama-qarshi xarakterini aniqladi. Viloyat miqyosida sho'rlangan yerlarning ulushi tanqidiy darajada (97%) saqlanib qolgan bo'lsa-da, hududiy darajada sezilarli differentsiatsiya kuzatiladi: Guliston va

Oqoltin tumanlarida meliorativ holat yaxshilanishi (muammoli yerlar ulushining 3 martadan ortiq kamayishi), Sardoba tumanida esa halokatli yomonlashuv (o'rta va kuchli sho'rlangan yerlar ulushining 3,4 marta ortishi) qayd etildi. Geoekologik risklarning umumiy qiymati 2,54 milliard AQSH dollarini tashkil etib, sho'rxoklar hosil bo'lishi (80%) asosiy risk manbai ekanligi aniqlandi.

"Geoekologik risklarni boshqarish bo'yicha chora-tadbirlar va tavsiyalarni ishlab chiqish" deb nomlangan 4-bobda sho'rlanish darajasini nazorat qilish va sho'rlanishning geoekologik risklarini boshqarish uchun ba'zi vositalar ishlab chiqilgan.

Tuproq sho'rlanishi, er osti suvlarining sathi va minerallashuvi, sug'orish suvi va drenaj oqimining minerallashuvini monitoring qilish mavjud risk darajasini kamaytirish yoki shu darajada ushlab turish uchun zarur hisoblanadi. Yerlarning hozirgi holatini tezda baholash va meliorativ tadbirlarni ishlab chiqish uchun ekspress usullar, shu jumladan bioindikatsiya usuli qo'llaniladi. Bioindikatsiya ekotizimlarning ifloslanish darajasi va intensivligini aniqlashga, shuningdek, ularing degradatsiyasining zamon va makondagi dinamikasini kuzatishga yordam beradi. Qishloq xo'jaligi hududlarida sho'rlangan tuproqlarda o'sib chiqayotganda quyidagi kabi tashqi belgilarning juda yuqori o'zgaruvchanligiga ega bo'lgan g'o'zani sho'rlanish uchun bioindikator sifatida ishlatish taklif qilindi: barg plastinkasining qalinligi va maydoni, og'izchalar soni, ildiz uzunligi o'zgarishi, tuproqning sho'rlanishi va paxta barg plastinkasining qalinligi o'rtasidagi bog'liqlik. Tuproqning sho'rlanishini amaliy baholash va bashorat qilish uchun eksperimental ravishda olingan ma'lumotlar Origin 6.0 dasturida qayta ishlandi va quyidagi ko'rinishdagi eksponentsial o'sish tenglamasi olindi: $Y = y_0 + ae^{(x/t)}$, va uning uchun zarur koeffitsiyentlarning qiymatlari hisoblandi. Tenglamaning yakuniy ko'rinishi:

$$Z_{tox} = -0.01764 + 0.08856e^{(h/0.02241)}$$

Bu yerda h-paxta bargining qalinligi, mkm; Z_{tox} -tuproqdagi zaharli (toksik) tuzlarning miqdori, %.

Ushbu tenglama laboratoriya tekshiruvlarisiz sho'rlanishning ekspress-monitoringini o'tkazish imkonini beradi.

Ekologik risklarni boshqarish uchun birinchi navbatda suv resurslarini boshqarish tizimini tashkil qilish zarur:

1) sug'orish kanallari va kollektor-drenaj tarmog'ini rekonstruksiya qilish va qurish

2) suv iste'molining hisobini yuritish uchun "Aqlli suv" (Smart water) tizimini joriy etish

3) suvni tejaydigan sug'orish texnologiyalarini joriy etish (tomchilatib sug'orish, yomg'ir latib sug'orish)

4) yer osti suvlari sathini boshqarish (muallifning kontseptsiyasi)

5) Kollektor-drenaj oqovalarini boshqarish

Qishloq xo'jaligi ekinlarining hosildorligiga ko'plab omillar ta'sir qiladi. Tuproqning sho'rlanishi sharoitlarida ular qatoriga minerallashuv darajasi va yer

osti suvlari sathi qo'shiladi. Hosildorlikka ta'sir qiluvchi omil sifatida *SSM·SSS* hosilasidan foydalanish mumkinligi taxmin qilindi.

Ushbu taxminni tekshirish uchun Sirdaryo viloyatining har bir tumani uchun 2019-2021-yillarda yer osti suvlari sathi va ularning minerallashganlik darajasini o'lchash ma'lumotlari hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining paxta va bug'doy hosildorligi to'g'risidagi ma'lumotlari olindi. Sirdaryo viloyati tumanlari bo'yicha 2019-2021-yillarda paxta va bug'doy hosildorlik ko'rsatkichining *SSM·SSS* kompleks mezoniga qarab o'zgarishi 2-jadvalda keltirilgan (har bir hudud uchun topilgan qiymatlar o'sib borish tartibida joylashtirilgan).


Olingan ma'lumotlar asosida Origin 6.0 dasturiy paketi yordamida Gauss egri chizig'i asosida hosildorlikning *SSM·SSS* kompleks mezoniga bog'liqligining matematik modellari qurildi:

$$\text{g'o'za uchun} \quad y = 19,372 + \frac{61,729}{4,425\sqrt{\pi/2}} e^{-\frac{(x-6,319)^2}{4,425^2}}$$

$$\text{bug'doy uchun} \quad y = 43,2385 + \frac{43,5367}{2,082\sqrt{\pi/2}} e^{-\frac{(x-5,795)^2}{2,082^2}}$$

Determinatsiya koeffitsientining qiymatlari R^2 tegishli ravishda g'o'za uchun 0,5101 va bug'doy uchun 0,7245 ni tashkil etdi.

Eksperimental ma'lumotlarga ko'ra hosildorlikning *SSM·SSS* kompleks mezoniga bog'liqligi grafigi va olingan ma'lumotlarning matematik model (g'o'za misolida) yordamida approksimatsiyasi 3-rasmda keltirilgan



5-rasm. Paxta va bug'doy hosildorligining *SSM·SSS* kompleks mezoniga bog'liqligi grafigi

Olingan grafiklardan ko'rinib turibdiki, hosildorlik ko'rsatkichi nuqtai nazaridan mezonning optimal qiymatlari zonasi g'o'za uchun 5,5...7 birlik va bug'doy uchun 5,5....6,6 birlikni tashkil etadi. Ushbu modeldan foydalanganda hosildorlik haqida nazariy bashoratlar qilish uchun shuni esda tutish kerakki, ma'lum bir hudud uchun *SSM* miqdorini nazorat qilish qiyin va tartibga solib

bo'lmaydigan miqdor hisoblanadi, va SSS qiymatini esa drenaj tizimi yordamida tartibga solish mumkin. Drenaj kollektorlarini shlyuzlar orqali yer osti suvlari sathini kerakli darajada ushlab turish mumkin (ochiq kollektorlarga suvning oldini to'sadigan inshootlar, yopiq kollektorlarga esa klapanli (zadvijkali)-tartibga soluvchi apparatura o'rnatiladi).

Tomchilatib sug'orish va yomg'irlatib sug'orish kabi suvni tejaydigan texnologiyalarni qo'llashning mumkin bo'lgan risklarini tahlil qilish sho'rlangan yerlarda bu tadbirlar qattiq nazorat ostida amalga oshirilishi kerakligini ko'rsatdi, chunki ba'zi hollarda ushbu texnologiyalarni qo'llash tuproq sho'rlanishining mahalliy o'sishiga olib kelishi mumkin.

XULOSA

1. O'zbekistonda sho'rlanishning inson faoliyatining turli sohalariga ta'sirini, sho'rlanish muammolarini hal qilish yo'llarini va sho'rlanishga qarshi kurash choralarining mumkin bo'lgan salbiy oqibatlarini kompleks baholash ilgari o'rganilmagan. Tuproq sho'rlanishidan kelib chiqadigan geoekologik risklarni baholash bunday kompleks tahlil uchun vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bunday baholash sho'rlanishga qarshi kurashning atrof-muhit va xalq xo'jaligiga qo'shimcha zarar yetkazmaydigan choralarni to'g'ri tanlashga imkon beradi.

2. Ushbu dissertatsiya ishida Sirdaryo viloyatida gidromeliorativ ishlar natijasida yuzaga keladigan riskni uch usulda baholash amalga oshirildi. Bajarilgan barcha hisob-kitoblar agroekologik tizim va atrof-muhitning noqulay holatini ko'rsatdi. Riskni tahlil qilishning mavjud usullari va olingan hisob-kitob ma'lumotlarini tahlil qilish asosida biz iqtisodiy va ijtimoiy geografiya, tuproqshunoslik, iqtisodiyot, muhandislik inshootlarini loyihalashtirish kabi sohalarida qo'llanilishi mumkin bo'lgan tavsifiy-statistik baholash metodini taklif qildik. Shuningdek, tavsiya etilgan metodni qo'llagan holda baholash me'yoriy (normativ) va qonunchilik hujjatlarini ishlab chiqishda ishlatilishi mumkin.

3. Riskni jamlanma ifloslanish ko'rsatkichi bo'yicha baholash Sirdaryo viloyatining turli tumanlari uchun risk darajasi bir xil emasligini, ammo viloyatning butun hududi uchun o'rtacha baho "kompensatsiya qilinadigan risk" toifasiga kirishini ko'rsatdi. Riskning ehtimoli 75% ni tashkil etadi (yuqori daraja).

4. Sotsiologik so'rovdan foydalangan holda birinchi marta uy-joylarda sizot suvlarining sathi ko'tarilishi (suv bosishi va tuproqning sho'rlanishi natijasida yetkazilgan zararni baholash Sirdaryo viloyati aholisining qariyb 60 % qismi har yili sizot suvlarining sathi ko'tarilishi bilan bog'liq ta'mirlash uchun qo'shimcha xarajatlar sarf qilishini ko'rsatdi. Bir uy xo'jaligiga to'g'ri keladigan xarajatlar yiliga 4,03 mln. so'mni tashkil etadi, bu esa O'zbekistondagi o'rtacha oylik ish haqidan yuqori hisoblanadi. Aholi punktlarida sizot suvlarining sathi ko'tarilishi natijasida yetkaziladigan jami zarar yiliga 6,62 mln USD ni tashkil etadi

5. Sirdaryo viloyatida sho'rlanish bilan bog'liq mavjud muammolarni har tomonlama tahlil qilish (noto'g'ri tashkil etilgan gidromeliorativ ishlar natijasida) birlamchi va ikkilamchi sho'rlanish risklarini to'liq tasniflash imkonini berdi.

Barcha mavjud risklar ikki toifaga bo'linadi: yaqqol va yashirin. Yaqqol risklarga hosilning yo'qolishi, avtomobil yo'llari va turar-joy binolarining buzilishi kiradi. Yashirin risklarga daryo va ko'llarga minerallashgan drenaj oqovalarini tashlash natijasida atrof-muhitga yetkaziladigan zarar kiradi.

6. Tuzilgan tasniflash asosida risklarni pul ifodasida sifatli baholash amalga oshirildi. Uning natijalariga ko'ra Sirdaryo viloyati miqyosida umumiy risk yiliga 2,506 milliard AQSh dollarini tashkil etadi va sug'orish tizimining holatini yaxshilash bo'yicha chora-tadbir xarajatlari taklif qilingan ishlar 6-7 yil ichida amalga oshirilsa, yiliga 632,654 million AQSh dollarini tashkil etadi.

7. Sirdaryo viloyati sug'oriladigan yerlarining meliorativ holatini kompleks tahlil qilish natijalari 2010-2022 yillar davridagi ikkilamchi sho'rlanish jarayonlarining murakkab va qarama-qarshi xarakterini aniqladi. Viloyat miqyosida sho'rlangan yerlarning ulushi tanqidiy darajada (97%) saqlanib qolgan bo'lsa-da, hududiy darajada sezilarli differentsiatsiya kuzatiladi: Guliston va Oqoltin tumanlarida meliorativ holat yaxshilanishi (muammoli yerlar ulushining 3 martadan ortiq kamayishi), Sardoba tumanida esa halokatli yomonlashuv (o'rta va kuchli sho'rlangan yerlar ulushining 3,4 marta ortishi) qayd etildi. Geoekologik risklarning umumiy qiymati 2,54 milliard AQSH dollarini tashkil etib, sho'rxoklar hosil bo'lishi (80%) asosiy risk manbai ekanligi aniqlandi.

8. Yerlarning sho'rlanganlik darajasini tezda baholash uchun "g'o'za bargining qalinligi" parametridan foydalanish taklif qilindi va bu o'zaro aloqadorlikning eksponensial bog'liqlik ko'rinishidagi matematik ifodasi olindi. Bu esa sho'rlanganlikning ekspress-monitoringini laboratoriya tadqiqotlarini o'tkazmasdan amalga oshirish imkonini beradi.

9. Ekinlar hosildorligini pasaytirish risklarini bashorat qilish va boshqarishning yangi usuli taklif qilindi. Hosildorlikka ta'sir qiluvchi omil sifatida SSM·SSS (sizot suvlarining minerallashuvi * sizot suvlarining sathi) kompleks ko'rsatkichi taklif etildi hamda g'o'za va bug'doy hosildorligining ushbu ko'rsatkichga bog'liqligining matematik modeli olindi. Maksimal hosildorlikni ta'minlash uchun SSM·SSS mezonining optimal qiymatlari zonasi g'o'za uchun 5,5..7 va bug'doy uchun 5,5...6,6 birliklarga teng ekanligi aniqlandi. Ushbu modeldan foydalanganda hosildorlik haqida nazariy bashoratlar qilish uchun shuni esda tutish kerakki, ma'lum bir hudud uchun sizot suvlari minerallashuvi miqdorini nazorat qilish qiyin va tartibga solib bo'lmaydigan miqdor hisoblanadi, va sizot suvlari sathi qiymatini esa drenaj tizimi yordamida tartibga solish mumkin.

Olingan natijalar tuproq sho'rlanishi va ikkilamchi sho'rlanishi bilan bog'liq geoekologik risklarni har tomonlama baholash imkonini beradi. Bu esa ehtimoliy zararni bashorat qilish va salbiy oqibatlarni kamaytirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ НА ОСНОВЕ НАУЧНОГО СОВЕТА
DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ
ПРИ САМАРКАНДСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

ГУЛИСТАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

АРИПОВ ИСЛОМЖОН КАХРАМОНОВИЧ

**НАУЧНЫЕ ОСНОВЫ ОЦЕНКИ ГЕОЭКОЛОГИЧЕСКИХ РИСКОВ
ВТОРИЧНОГО ЗАСОЛЕНИЯ ПОЧВ В СЫРДАРИНСКОЙ ОБЛАСТИ**

**11.00.05 – Охрана окружающей среды и рациональное использование природных
ресурсов**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО
ГЕОГРАФИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Тема диссертационного исследования доктора философии (PhD) по географическим наукам зарегистрирована Высшей Аттестационной Комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2024.3.PhD/Gr341

Диссертация выполнена в Гулистанском государственном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета по адресу (www.samdu.uz) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» по адресу (www.ziyo.net).

Научный руководитель:

Радкевич Мария Викторовна
доктор технических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Нигматов Аскар Нигматуллаевич
доктор географических наук, профессор

Рафикова Нодира Азамовна
доктор философии (PhD) по географическим наукам

Ведущая организация:

Джизакский государственный педагогический университет

Защита диссертации состоится 26 августа 2025 г. в 14:00 часов на заседании Научного совета по присуждению учёных степеней DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 при Самаркандском государственном университете имени Шарофа Рашидова. (Адрес: 140104, Самарканд, ул. Университетский бульвар, дом 15, Тел.: (95) 410-20-10; факс: (0366) 239-16-36, e-mail: ik-geografiya2019@mail.ru).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре при Самаркандском государственном университете имени Шарофа Рашидова (зарегистрирована под номером № 65). Адрес: 140104, г. Самарканд Университет бульвар 15. Тел.: (0366) 233-60-87.

Автореферат диссертации разослан 14 августа 2025 года
(Реестр протокола рассылки № 1 от 9 августа 2025 года)



С.Б.Аббасов

Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, д.г.н., профессор

Б.А.Мелиев

Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор философии по географическим наукам, (PhD)доцент

М.Р.Усмонов

Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, д.г.н. (DSc), доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В сельском хозяйстве во всем мире важными вопросами являются экологическое восстановление сельскохозяйственных угодий, вышедших из употребления из-за засоления, или разработка технологий предотвращения засоления почв. Это позволит предотвратить экономический кризис, связанный с растущей потребностью населения в продовольствии и нехваткой продовольствия. Известно, что на сегодняшний день 30 процентов из 1,5 млрд. гектаров посевных площадей, используемых в сельском хозяйстве в мире, подвержены засолению в различной степени из-за природно-антропогенных факторов, что негативно влияет на выращивание продуктов питания на основе сельскохозяйственных растений и на экологическую среду. Соответственно, важно улучшить экологическое и мелиоративное состояние орошаемых сельскохозяйственных угодий, деградировавших из-за засоления, а также увеличить возможности их использования в производстве.

Во всем мире ведутся исследования по восстановлению орошаемых земель, которые деградировали или вышли из употребления из-за засоления, для повышения плодородия почвы и улучшения экологического состояния на основе расширения площади сельскохозяйственных культур. При этом особое внимание уделяется направлениям экологического восстановления на основе снижения уровня и солености сточных вод и повышения плодородия почв с помощью растительных ресурсов, обладающих солеустойчивостью и способностью накапливать в своем организме водорастворимые ионы соли, содержащиеся в почве.

